

RESEARCH ARTICLE

Analysis Of Phraseological Units Based On Equivalence Criteria (The Case Of The Work "Darichalar")

Nilufar Hodjayeve

Associate Professor, PhD Tashkent State University of Oriental Studies Tashkent, Uzbekistan

Iroda Fatxutdinova

Postgraduate Student Tashkent State University of Oriental Studies Tashkent, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 73-76

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-NonCommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Abstract

This article examines the translator's approaches to identifying Uzbek equivalents of Hindi phraseological expressions based on the criteria of semantic correspondence, cultural adaptation, stylistic harmony, and connotative meaning. The study explores the semantic, cultural, and artistic dimensions of equivalence and highlights the factors that ensure naturalness in translation and closeness to the reader within a scholarly framework.

KEYWORDS

translation studies, phraseological equivalence, semantic correspondence, cultural adaptation, stylistic harmony, connotative meaning.

INTRODUCTION

Tarjimashunoslikda frazeologik birliklarning ekvivalentini aniqlash jarayoni tarjimonning lingvistik bilimlari, madaniy sezgirligi hamda stilistik mahoratini sinovdan o'tkazadigan murakkab vazifalardan biridir [12,783]. Xususan, hindiy tilidagi leksik birliklarni o'zbek tiliga tarjima qilishda ekvivalent tanlash faqat semantik moslikni emas, balki madaniy konnotatsiyalarni ham hisobga olishni talab etadi.

Mazkur tadqiqotda hind tiliga xos ayrim leksik birliklarning o'zbek tiliga tarjima jarayoni tahlil qilinadi. Shu bilan birga, tarjimonning ekvivalent tanlashdagi yondashuvi, uslubiy qarashlari va ijodiy mahorati baholash ob'ekti sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot materiali sifatida Bhisham Sahniyning "Jharokhe" [13] (Anzoriddin Ibrohimov tarjimasi "Darichalar" [4]) qissasida uchraydigan frazeologik birliklar tanlangan. Ushbu birliklarning o'zbek tiliga

tarjimasi hamda ekvivalent tanlash jarayonida qo'llangan stilistik va semantik yondashuvlar ilmiy tahlilga tortildi. Metodologik asos sifatida qiyosiy tahlil usullari qo'llanib, frazeologik birliklarning semantik mazmuni, madaniy konnotatsiyasi va stilistik ta'siri asliyatga qiyoslab o'rganildi. Bundan tashqari, maqolani tayyorlashda nazariy asoslarni Xamidov X, Rahmatullayev Sh; Sunil Sharma hamda tarjimada semantik va stilistik ekvivalentlikka bag'ishlangan Tareq Ali Eadaros Assaqaf, P. Nyumark va Taberlarning maqolalaridan foydalanildi.

Tarjimada ekvivalentlikka erishish jarayoni lingvistik muvofiqlik doirasidan ancha keng bo'lib, u madaniy sezgirlik, kontekstual idrok va kommunikativ strategiyalarni o'zaro uyg'unlashtirgan fanlararo metodologik yondashuvni talab etadi. Bu yondashuv tarjima faoliyatini nafaqat til darajasida,

balki madaniyatlararo muloqot kontekstida ham samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Nazariy modellarning konseptual tahlili shuni ko'rsatadi, ekvivalentlik - bu statik muvofiqlik emas, balki tarjimonning idroki, madaniy kompetensiyasi va stilistik sezgirligiga tayangan dinamik jarayondir. Ushbu jarayon konnotativ ma'nolarni, stilistik qatlamlarni va kontekstual nuanslarni hisobga olgan holda, asl matn va maqsadli til o'rtasida semantik muvozanatni ta'minlashga qaratilgan. Shu bois, zamonaviy tarjimashunoslikda ekvivalentlik tamoyili tarjima sifatini oshirish, madaniyatlararo muloqotni samarali ta'minlash, kommunikativ samaradorlikni kuchaytirishda markaziy hamda nazariy asos sifatida talqin etiladi. Bu tamoyil tarjimon faoliyatining nafaqat lingvistik transformatsiya, balki ma'no yaratish va madaniy vositachilik sifatida ko'rish imkonini beradi [8,284].

Frazeologik birliklar oddiy so'z birikmalaridan tubdan farq qiladi. Ular ko'chma ma'noni ifodalovchi turg'un til birliklari sifatida nutq jarayonida semantik va stilistik vazifalarni bajaradi. Sh. Rahmatullayev o'z asarlarida frazeologik birliklarni "frazeologizm" yoki "frazeologik birlik" atamalarini bilan ifodalash mumkinligini qayd etadi. U, shuningdek, bu til birligini leksema va morfema terminlariga o'xshash tarzda "frazema" deb atashni ma'qul ko'radi. [1,420] Sh. Rahmatullayevning ta'kidlashicha, frazema kamida ikki leksemaning birikmasidan tashkil topadi va shu jihati bilan mustaqil til birligi sifatida ajralib turadi. [2,6]. Frazeologik ma'no doirasi leksik ma'no doirasiga qaraganda ancha keng va murakkab bo'lib, ko'proq semantik qatlamlarni qamrab oladi. [2,12]. X.Xamidovning fikricha, uzoq davom etgan tadqiqotlar natijasida, xususan turkiy tillarning frazeologik qatlamini o'rgangan rus va o'zbek tilshunoslari hamda turkshunoslar aniq ilmiy mezonlarga tayangan holda, frazeologik birlik sifatida barcha turg'un shakllarni emas, balki ularning muayyan qismini - turg'un iboralarni tan oladilar. [5,9]. Hind tilshunoslari ham frazeologik birliklarni barcha turg'un shakllar sifatida emas, balki ko'proq idiomatik va metaforik iboralar sifatida ko'radilar. Sunil Sharma ta'kidlaydiki, hind tilidagi frazeologizmlar "muzlagan" birliklar emas, balki madaniy va ijtimoiy tajribaga asoslangan motivatsiyalangan ifodalardir. Ular ko'pincha metaforik konseptlarga tayangan bo'lib,

jamoaviy tajriba va madaniy konnotatsiyani aks ettiradi. Shu bois frazeologizmlarni faqat grammatik turg'unlik mezoniga ko'ra emas, balki madaniy va semantik motivatsiya asosida baholash zarur [14,162]. Sunil Sharmaning qarashlari ilmiy jihatdan asosli bo'lib, frazeologizmlarni tahlil qilishda semantik hamda madaniy motivatsiyani inobatga olish muhimligini ko'rsatadi. Bunday yondashuv faqat hind tiliga emas, balki o'zbek va boshqa tillardagi frazeologik qatlamni o'rganishda ham samarali qo'llanilishi mumkin. Demak, hind tilshunoslari ham Rahmatullayev fikriga yaqin tarzda, frazeologik birlik sifatida hamma turg'un shakllarni emas, balki idiomatik, obrazli va madaniy jihatdan motivatsiyalangan iboralarni tan olishadi. Frazeologik birliklar til tizimida nafaqat leksik-semantik, balki madaniy-semiotik ahamiyatga ham ega bo'lib, tarjima jarayonida ularni ekvivalent tanlash masalasi alohida ilmiy muammo sifatida ko'riladi. Frazeologizmlar qo'llanilganda, matnning semantik bo'yoqdorligi ortadi, obrazlilik kuchayadi va ifoda yanada ta'sirchan tus oladi. Shu bois tarjimonning frazeologik ekvivalent tanlashdagi mahoratini quyidagi ko'rsatkichlar orqali baholash mumkin:

Semantik muvofiqlik [7,106]: Asliyatdagi iboraning ma'nosi tarjima ekvivalentida to'liq aks etganmi? *Madaniy moslik [11]:* Iboraning madaniy konnotatsiyasi saqlanganmi? *Stilistik uyg'unlik [10]:* Matnning umumiy uslubiga mos keladimi? *Konnotativ yuklama [9,140]:* Iboraning hissiy va obrazli ta'siri tarjima tilida qay darajada ifodalangan? B.Sahniyning "Jharokhe" asaridan: "तू हर बात में टाँग नहीं उड़ाया कर!" (tu har baat mei taange nahi uraaha kar!) (13,45)" iborasi literal "Sen bir gapga oyoqni suqma!" degan metaforik tasvirga ega bo'lib, tarjimon buni "Darichalar" asarida "Sen har narsaga aralashverma" deb tarjima qilgan. Ushbu iborani yuqoridagi mezonlarga ko'ra muvofiqlik darajasini tahlil qilamiz:

1. *Semantik muvofiqlik.* "हर बात में टाँग नहीं उड़ाया" (har baat mei taanga nahi uraaya- "oyoqni suqmaslik") o'zbek tiliga "birovni ishiga aralashish", "to'sqinlik qilish", salbiy ma'noda "boshni tiqish" "burnini suqish", "tumshug'ini suqish" [3,113] kabi frazeologik ekvivalentlar orqali tarjima qilinadi. Bu yerda "har narsaga aralashmaslik" iborasi asliyatga

semantik jihatdan to'liq ekvivalent bo'ladi, chunki u ham ma'no jihatidan "o'zganing ishiga aralashmaslik"ni anglatadi.

2. *Madaniy moslik.* Hindiy tilidagi bu ibora xalq orasida keng qo'llanadigan, ko'proq og'zaki nutqda ishlatiladigan frazeologizm sanaladi. O'zbek tilida bunga mos ekvivalent "oyoqni suqish" degan ibora mavjud emas, shuning uchun tarjimon "har narsaga aralashaverma"ni tanlagan. Bu madaniy moslashtirishning to'g'ri usuli. O'zbek tilidagi "har narsaga burunni suqish, aralashish" iborasi ham xalq orasida ko'p ishlatiladigan, madaniy jihatdan tanish va salbiy ifoda sanaladi. Har ikkisi ham kundalik hayotiy tajribaga asoslangan metafora bo'lib, madaniy konnotatsiyani saqlab qoladi.

3. *Stilistik uyg'unlik.* Tarjimon so'zma-so'z tarjimadan voz kechib, matnning umumiy uslubiga mos bo'lgan xalqona, jonli ifodani tanlagan. "Har narsaga aralashish" iborasi badiiy matnda tabiiy va o'quvchiga yaqin eshitaladi, sun'iylik anglashilmaydi.

4. *Konnotativ yuklama.* "हर बात में टॉग नहीं उड़ाया" (har baat mei taanga nahi uraay) iborasi obrazli va hissiy kuchga ega: kishilarning "birovni ishiga aralashish" tasviri kuchli bezovtalikni ifodalaydi. O'zbekcha tarjimasida ham hissiy jihatdan kuchli, birovni ishiga aralashish, salbiy ma'noda o'ziga tegishli bo'lmagan gapga suqilishni ifodalaydi. Konnotativ ta'sir o'zbek tilida ham to'liq saqlangan, obrazlilik yo'qolmaganligi kuzatildi.

Yana bir misolni tahlil qilamiz: घर भर में चुप्पी छाई है। So'zma-so'z tarjima: "Butun uyda sukunat hukm surmoqda". Tarjimon: "Butun uy suv quygandek jim-jit". Mazmun jihatidan ikkalasi ham to'liq semantik ekvivalent bo'lib, "uyning mutlaq sukunatini" ifodalaydi. Tarjimon so'zma-so'z emas, balki obrazli ekvivalentni tanlagan, lekin asosiy ma'no - "uyda mutlaq jimlik" - saqlangan. *Stilistik uyg'unlik jihatidan:* hindiy matn oddiy, neytral uslubda berilgan. O'zbekcha variant esa xalqona va badiiy ohangga ega: "suv quygandek jim-jit" iborasi o'quvchiga jonliroq, tabiiyroq eshitaladi. Bu stilistik moslashtirish matnga badiiy kuch qo'shadi va o'quvchiga yaqinlashtiradi. *Madaniy moslik:* hindiy

tilida चुप्पी "chuppi" (sukunat) iborasi oddiy xalq nutqida ham keng qo'llanadi. O'zbek tilida esa "suv quygandek jim-jit" iborasi xalq orasida keng tarqalgan metafora bo'lib, madaniy jihatdan tanish va tabiiy. Shu bois tarjimon madaniy moslashtirish orqali o'zbek o'quvchisiga tanish bo'lgan obrazni tanlagan. *Konnotativ yuklama:* asliyat matnida ibora neytral, faqat jimlikni bildiradi, tarjimada esa obrazli va hissiy jihatdan kengroq: "suv quygandek" tasviri mutlaq sukunatni kuchliroq his ettiradi, o'quvchida vizual va hissiy ta'sir uyg'otadi. Demak, konnotativ jihatdan o'zbekcha tarjima asliyatdan ham ta'sirchanroq bo'lib chiqqan. Tarjimon so'zma-so'z tarjimadan voz kechib, semantik mazmunni saqlagan holda, o'zbek o'quvchisiga yaqinroq bo'lgan stilistik va madaniy ekvivalentni tanlagan. Natijada, konnotativ ta'sir kuchaygan va matn badiiy jihatdan boyitilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tarjimada ekvivalentlikka erishish jarayoni faqatgina so'zning lug'aviy ma'nosini topish bilan cheklanmaydi. Unda iboraning madaniy konnotatsiyasi, matndagi vazifasi va o'quvchi uchun tushunarli bo'lishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir til o'ziga xos xalqona ifodalar tizimiga ega bo'lgani uchun tarjimonlar ma'nodosh, madaniy jihatdan tanish va tabiiy ekvivalentlarni izlashlari zarur. Shuning uchun ham tarjimada faqat semantik moslikni emas, balki madaniy, stilistik va konnotativ jihatlarni ham hisobga olish lozimligi ta'kidlandi. Ana shunday yondashuvlar natijasida tarjimalar tabiiylikka erishadi, o'quvchiga yaqin bo'ladi va badiiy ta'sirchanlikni to'liq ta'minlaydi degan fikrdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] – Sh. Rahmatullayev., Hozirgi o'zbek adabiyoti: darslik. – T.: Universitet, 2016. – B.420.

[2] – Sh. Rahmatullayev., O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi. – T.: Universitet, 1992. – B.6.

[3] – Sh. Rahmatullayev, N. Mahmudov., O'zbek tili frazeologik lug'ati. – T.: G'. G'ulom nashriyoti, 2022. – B.113.

[4] – A. Ibrohimov., Darichalar. – T.: “Raduga” nashriyoti, 1983.

[5] – X.Xamidov., Turk tilida frazeologizmlarning yuzaga kelishi, ma’no va grammatik xususiyatlari. – T.: TDSHU, 2019. – B.152.

[6] – N. Khodjaeva., (2019). Semantics of kinship terms as a form of address in Uzbek translations of Premchand. Theoretical and Applied Science, (8), 107–110.

[7] – I. Fatxutdinova., Tarjimada semantik ekvivalentlik darajasining ahamiyati. Sharqshunoslik. ISSN 2181-8096. 2025, № 1. – P.106.

[8] – I. Fatxutdinova., Tarjimada ekvivalentlik yondashuvlarining konseptual tahlili. Komparativistika. 2025. Vol.2, № 4(8). – B.284–295.

[9] – I. Fatxutdinova., Tarjimada ekvivalentlikning muloqot maqsadini ifodalash vositasi. Oriental Renaissance xalqaro ilmiy jurnali. ISSN 2181-1784. 2021. – B.140–149.

[10] – P. Newmark., A Textbook of Translation. Shanghai Foreign Language Education Press, 1988. – P.280.

[11] – E.A. Nida, C. R. Taber., The Theory and Practice of Translation. Netherlands: E. J. Brill, Leiden, 1982.

[12] – Assaqaf, Tareq Ali Eadaroos. Adaptation as a Means of Translation. IJSR. ISSN: 2319-7064. Volume 5 Issue 1, January 2016. – B.783.

[13] - भीषम साहनी. झरोखे. नवीन शाहदरा, नई दिल्ली, 1983. – 131.

[14]- Sharma, Sunil. Happiness and metaphors: a perspective from Hindi phraseology. Phraseology Journal, 2017. De Gruyter Brill. DOI: 10.1515/phras-2017-0009. YoP 2017; 8: 161–180.